IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
Volume 3 issue 2 - 2023

NORMUROD NORQOBILOV QISSALARIDA RUHIY TAHLIL VA RUHIY QIYOFA MASALASI

Xo‘jaahmadova Nafisa Yendirboy qizi
Nukus davlat pedogogika instituti 2-kurs Magistrant

Annotatsiya
Maqolada iste’dodli yozuvchi N.Norqobilovning “Kurash” qissasidagi ruhiy tahlil, ruhiy qiyofa masalalari yoritiladi. Asardagi obrazlar tahlil qilinib, asardagi milliyligimizni tarannum qilib turuvchi urf-odatlarimizdan biri bo‘lgan kurash o‘yini va kurashchi polvonlar haqida bayon qilinadi.

Annotation
In the article, the issues of mental analysis and mental image in the short story "The Struggle" of the talented writer N. Norqabilov are covered. The characters in the work are analyzed, and the wrestling game and wrestlers are described in the work, which is one of our traditions that glorify our nationality.

Kalit so‘zlar
Kurash, milliylik, ruhiy tahlil, polvonlik, an’ana, urf-odat, mardlik, g‘urur, g’alaba, mag‘lubiyat, or-nomus.

Key words
Struggle, nationality, spiritual analysis, wrestling, tradition, , courage, pride, victory, defeat, honor.

Mustaqillikka erishgan xalqimizning iqtisodiy ijtimoiy va madaniy hayotida yangi davr boshlandi, ma’naviyat masalalariga e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Mamlakatimizda barcha soha tarmoqlar qatori madaniyat va san’at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha ulkan ishlar qilinmoqda”[1]. Ana shu talablar adabiy-badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur qilib qo‘ydi.

Adabiyotshunos O.Sharafiddinov shunday degan edi: “Bugungi adabiyot, badiiy tafakkurimizda erishishimiz kerak bo‘lgan eng muhim jihat – voqelikka dunyoga munosabatda yangi aspektlarga chiqish, dunyoni yangicha, chuqurroq, yuksakroq idrok qilishga o‘tish. Binobarin, dunyoning, jamiyatning, insonning mohoyatini kengroq ochishga harakat qilishimiz kerak”[2].

Bugungi o‘zbek prozasida iste’dodli va taniqli adib Normurod Norqobilov o‘z uslubiga, betakror tiliga ega ekanligini hozirgi kunda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi, asarlarini sevib o‘qishadi. Adabiy tanqidchilikda ham uning asarlari xususida turli xil ijobiy fikrlar bildirilyapti, anjumanlarda bahs-munozaralarga sabab bo‘lyapti. Bularning barchasi bejiz emas, albatta. Adib asarlarining badiiy xususiyatlari haqida ko‘p ijobiy gaplarni aytish mumkin. Normurod Norqobilov uslubining o‘ziga xosligi, qahramonlarining hayotiyligi uning asarlarini o‘qimishli, yuqori saviyadaligining asosiy omillaridan biridir.

Yozuvchi ko‘pgina asarlarida oddiy qishloq odamlarining tantiligini, soddadilligini, mardligini shu darajada yorqin chizgilarda tasvirlaganki, adib asarlari bilan tanishgan har bir kitobxon o‘zbek xalqiga xos milliylikni, urf-odatlarni yaxshi anglaydi. Biz tahlil qilmoqchi bo‘layotgan “Kurash” asarida ham milliyligimizni tarannum qilib turuvchi urf-odatlarimizdan biri bo‘lgan

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Xalq so‘zi, - Toshkent: 2017-yil 4-avgust.
[2] Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent. Sharq, 2004. – 640 bet.

kurash o‘yini va kurashchi polvonlar haqida bayon qilinadi. Tahlilga kirishishdan oldin bir masalani ilgari sursak. Ushbu asar internet saytlarida, ijtimoiy tarmoqlardagi kutubxona guruhlarida ham qissa deb berilgan(lekin asarning hajmi qissa deb ataluvchi janrga nisbatan kamroqdek...). Asardagi voqelik, obrazlar xarakteri juda ham ta’sirli. Bu asar ma’no-mazmuni jihatidan noyob bo`lib, kitobxonning e’tiboridan chetda qolmaydi.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqi boy udum, urf-odat, an’analarga ega bo‘lgan xalq hisoblanadi. Qadimda to‘ylarimiz povlonlar yig‘inisiz o‘tmagan. Ana shunday yig‘inlarda to‘y egasi ataganini davraga tashlaydi. So‘ngra polvonlar o‘rtaga tushib bellashadilar. Kurash haqiqiy mardlar o‘yini. Har kim ham polvon bo‘la olmaydi. Yuragida o‘ti bor, shijoatli, mard, epchil kishilargina haqiqiy polvon bo‘la oladi. U xoh erkak kishi bo‘lsin, xoh ayol kishi bo‘lsin tomirida polvonlar qoni bor har qanday kishi maydonlarda kuragi yerga tegmaydigan, bir so‘zli mard insonlar bo‘ladi. Biz tahlil ostiga olgan “Kurash” qissasi ham milliyligimiz ramzlaridan biri bo‘lgan kurash haqidadir. Asarimiz bosh qahramoni Hamida momo polvonlar avlodidan. Kimsan To‘ra polvonning qizi. Yoshligidan otasi uni kurashga o‘rgatgan. Maydonlarda mana man degan ko‘pgina polvonlar kuragini yerga ishqagan mard qiz bo‘lgan. Hamida momoning o‘g‘li Shomurod ham el orasida obro‘ orttirgan zo‘r polvonlardan biri. O‘g‘lining kurashlarda qatnashib sovrindor bo‘lib yurganini bilgan Hamida momo g‘ururlanib qo‘yardi. Dugonasiga ko‘ngil yorgan momo, o‘g‘lining g‘irromligini aytib xasrat qildi. Erkak kishi uchun bu isnod edi. Momo ko‘p davralarni ko‘rgan mardlarga xos tarzda, vazminlik bilan Shomurod polvonning g‘irromligini unga aytadi. O‘g‘lining g‘irromligiga guvoh bo‘lgan Hamida momo ko‘ksida nimadir junbushga keldi. Uning qalbida uyat va nafsoniyat, vijdon, oriyat va hamiyat, nafs va vijdon to‘qnashdi. Ularning g‘avg‘osi tog‘day qaddini sindirdi-qo‘ydi. G‘am - tashvish insonni ichdan yemiradi. Hamida momo qalbidagi hasratlar asarda shunday keltiriladi: - *“Momo aytmoq istaydi. Ammo hasrati tiliga ko‘chmay dilida charx ura boshlaydi. O‘g‘lim bel olishadigan bo‘lgandan beri davralarga yaqin bormayman, dedi tili emas, dili so‘zlab, ko‘zimdan qo‘rqaman, so‘ng g‘ayratim qo‘zib, yuragim hapqiradi. Tunov kuni falokat bosib borib qopman desang. Qarasam, Shomurod sorigina bir yigit bilan bellashayapti. Birrovgina tomosha qilay-chi debman men o‘lguram”*. Momo o‘z o‘g‘lining maydonda g‘irrom o‘ynaganini ko‘rdi. Buni ko‘rgan momo o‘g‘lidan juda g‘azablanadi. Kurash maydoniga tushgan har bir polvon hamma vaqt halol olishmog‘i kerak. O‘g‘li esa bu qoidani buzdi. Momoning yuragida polvonlik olovi yondi, o‘g‘liga saboq berib qo‘yish uchun o‘yindan keyin uyiga kelgach, o‘g‘liga haqiqiy kurash qanday bo‘lishin ko‘rsatib qo‘yish uchun kurash tushdi va behosdan qo‘lini chiqarib oladi. Bu voqea qishloq orasida shov-shuv bo‘lib ketadi. Qishloqda kecha bo‘lgan to‘y dabdaba bilan o‘tgan bo‘lsa-da, to‘yning ovozasini ertasi bilan tarqalgan shov-shuv o‘z ortida qoldirdi. Barcha to‘yning dovrug‘ini unutishib, Hamida momoning ahvoli haqida g‘iybatlashadilar. Hol so‘rab eshik qoqqanlar esa bu gap so‘zlarning mutloqa teskarisiga guvoh bo‘lishadi. Tabiatan fe’li bir muncha tor, to‘g‘ri so‘z, qat’iyatli, To‘ra polvon deb nom qozongan polvonning qizi Hamida momo obrazi, asarida halollik, to‘g‘rilik timsolidir go‘yo. “Ot izini toy bosar” degan naql bor xalqimizda. To‘ra polvonning o‘g‘li bo‘lmasada o‘n o‘g‘ilga teng kelgulik vijdonli, oriyatli, kurashning bor sir-sinoatini biladigan va unga qat’iy amal qiladigan, polvonman degan yigitlarning bir nechasini kuragini yerga tekizgan, kurash desa tomirlaridagi qoni jo‘sh uradigan alplikni sevuvchi qizi bor edi. Zotan kurash ayollar uchun u qadar munosib bo‘lmasada qadimdan momolarimiz ana shunday kuch-qudrat va mahoratga ega bo‘lganlar. Hamida momo ana o‘sha momolar qatorida edi. Har narsaga qiziquvchan va talabchan inson zoti, borliqni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Yo‘qlovchilar ham shu yo‘ldan borishini ma’qul ko‘rishdi. Ular o‘z

bilganlaridan qolishmadi, momoning gapidan ko‘ra o‘zlarining tasavvurlariga ko‘proq ishonishdi. Bu kabi gaplar momoning qulog‘iga tongdayoq yetib kelgandi. Emishki, Shomurod polvon o‘z onasini urib qo‘lini sindirganmish. Bu mish-mishlardan Hamida momoning g‘azabi battar oshadi. Ko‘ngil so‘rash bahonasida aslida g‘iybat qilmoq uchun kirgan qo‘shnilarga yaxshilab o‘shqirib, baqirib beradi. Asarni o‘qir ekanmiz bosh qahramon Hamida momoning ruhiy holati, xarakteri, qanday inson ekanligini voqealar davomida, dugonasi bilan suhbatida juda aniq ko‘rinadi: - *“Kirganlar uning tomdek gavdasiga, bo‘yniga osilgan qo‘liga, sog‘ qo‘lidagi teshaga bir-bir boqisharkan, momoning yuzi ko‘zidan ezginlik alomatlarini topmoqqa tirishadilar. Negaki, momoning chars fe’li, birinchi bo‘lib so‘z qotmoqqa izn bermaydi”*[3]. Ushbu jumlalardan ham bilish mumkinki, bosh qahramonimiz jiddiy, har narsani gap ekan deb gapiravermaydigan, bitta gapiradigan, g‘iybatlarni jini suymaydigan to‘g‘ri so‘z ayol. Momoni tabiatida mag‘rurlik, qaytmaslik, to‘g‘rilik yo‘lida jonidan ham kechishga tayyor mardlik bor. – *“Qo‘lim tuzalsin, yerning ko‘ziga yopaman men uni. – Voy o‘lay, hali tag‘in olishmoqchimisan? – Emasam-chi! – Momo dugonasiga balanddan boqadi. – Yomon polvonning enasi bo‘lguncha… Otamning arvohini chirqillatib qo‘ymayman men!”*[4]

Asarda Hamida momoning yaqin dugonasi Mayram chaqqon obrazi keltirilgan. Bu obraz orqali yozuvchi insondagi ayrim salbiy hislatlarni ko‘rsatib o‘tadi, ya’ni vaziyatga qarab tuslanib ketuvchi insonlar tasviri berilgan: *-“-Uling keldi, - Mayram chaqqon dugonasini turtkilaydi. -Kutib oladigan xotini bor, - Hamida momo holatini o‘zgartirmaydi. -Buncha diydang qattiq. -Bo‘larim shu!- Hamida momoning ko‘zlari endi ko‘kda ohista parvoz qilayotgan burgutga qadaladi.- Senga o‘xshab ikki bet emasman, irshayganga irshayib*. Asar davomida mana shunday dialoglarda qahramonning ichki olami, ruhiy holati yorqin tasvirlangan. Bularni o‘qigan har bir kitobxon Hamida momoning qanday inson ekanligini to‘liq tasavvur qila oladi. U to‘g‘rilik, halollik uchun o‘z o‘glini ham ayamaydi.

Asarda burgut, o‘laksaxo‘r qushlar ramziy ma’noda keltirilgan bo‘lib, burgut halol, to‘g‘ri, or- nomusli, ayol kishi bo‘lsada yigitlarga xos jo‘shqinlik bilan kurashni sevuvchi Hamida momo timsolidar. O‘laksaxo‘r esa o‘z navbatida yuqorida ta’rifi keltirilgan Hamida momoning o‘g‘li Shomurod polvon timsoli deyish mumkin.

Momo kirib kelgan o‘g‘lining yuziga qarashni istamay samoda sokin qanoat qoqayotgan burgutni kuzatadi. Chunki u g‘irrom qilmaydi, u halol va pok. Hamida momo shu tobda o‘g‘lining naq qansharida tabassum qilib turganini ko‘rib, unga shunday nazar tashladiki, Shomurod polvon beixtiyor ko‘zlarini olib qochdi. Chunki u bu taxlit qarashga avval ham duch kelgandida: -*“Enaning qarashida shunday bir istehzo mavjud edi-ki, bu na g‘azabga o‘xshardi, na pichingga. Botirning qo‘rqoqqa mardning nomardga qarashiga o‘xshash nimadir edi bu. Bu xil qarash qarshisida kishi o‘zini mayda va arzimas his etardi. Shomurod polvon beixtiyor ko‘zlarini olib qocharkan, yaqindagina xuddi shu xil qarashga yana qayerdadir duch kelganini o‘ylaydi”*.

Momo o‘g‘lining tanobini tortib qo‘yish uchun ikkinchi bora yana kurash tushishga ahd qiladi, ammo bu safargisi uning ihtiyoridan tashqarida yuz beradi. Birinchi gal kurash tushganida g‘azabdan qoni qaynab turgan edi. O‘g‘liga dars berib qo‘ymoq niyatida kurash tushgandi. Bu gal esa uning qonida polvonlik hissi jo‘sh urib ketdi, u o‘zini jilovlay olmay qoladi: - *“ Biroq momo shu darajada kurash istardiki, qulog‘iga gap kirmaydi. O‘g‘lining vujudi taranglashayotganini sezarkan, saldan so‘ng jiddiy qarshilikka o‘tganini his qildi. Bu qarshi harakatdan momo rohat oladi. Istagi tiyiqsiz bir kuch oladi… - Yo-yo, pirim”*[5]. Qarshisidan

[3] www.ziyouz.com kutubxonasi. 1-bet
[4] www.ziyouz.com kutubxonasi. 7-bet
[5] www.ziyouz.com kutubxonasi. 10-bet

chiqib momo ko‘nglini ko‘tarmoq istagan Shomurod polvon bu taxlid onasiga yengilishini hayoliga ham keltirmagan edi. Bu voqelik asarida shunday chiziqlar bilan tortilgandi, Hamida momoning kurashchi ajdodlari, uni qo‘lladi deysiz go‘yo. U o‘g‘lini mag‘lub qildi. O‘g‘liga haqiqiy polvon qanday bo‘lishini ko‘rsatib qo‘ydi. Kurash halollik talab qiladi. Unda g‘irrom qilganlar polvon degan nomga noloyiqdir

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Normurod Norqobilovning ushbu asari o‘zligimizni his qildira oluvchi asardir. Undagi voqealar xalqimizning qon qoniga singib ketgan urf-odatlarimizni kitobxonga to‘la yetkazib bera oladi. asarni o‘qigan har bir kitobxon momoning bir so‘zligidan tasirlanmay qolmaydi. Asar yakunida o‘z o‘g‘lini yiqitgan onaning, aniqrog‘i Hamida polvonning hissiyotlari kitobxonning ham tanasini jumbushga keltirib yuboradi. Bundan tashqari asarda qahramonlar dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, psixologiyasi, ruhiy olami juda yorqin tasvirlangan. Asar hajm jihatdan kichik bo‘lsa ham ma’no-mazmun jihatdan juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Xalq so’zi , - Toshkent: 2017-yil 4-avgust.
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi.

WORDLY KNOWLEDGE